



## MILLIY MUSTAQILLIK TAFAKKURI VA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI DESTRUKTIV G'OYALAR TA'SIRIDAN HIMOYA QILISHDA MA'NAVIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA (INKLYUZIV TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA)

**Madraximov.V.B**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi kafedrasida boshlig'i  
o'rinbosari, Mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya:** *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarining vaziyatni to'g'ri baholash, fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va takomillashtirishda inklyuziv ta'lim texnologiyasining o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *nostandart vaziyatlar, o'quv jarayoni, inklyuziv ta'lim, muammoli vaziyat.*

Tarixiy-pedagogik tahlil, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni o'rganish natijalari hamda zamonaviy kadrlarni tayyorlash talablari tahlilidan shuni aytish mumkinki, o'quv jarayonini takomillashtirishning muhim yo'nalishi bu ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga asoslangan, o'rganuvchilarni faol bilish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan, ularning bilim olishga qiziqishlarini takomillashtiradigan hamda mustaqil ravishda bilim olishga intilishlari oshiradigan aniq bir maqsadga yo'naltirilgan inklyuziv ta'limni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Inklyuziv ta'lim usullari va ularni amalga oshirish jarayonlari haqidagi fikrlarni qadimgi grek faylasufi Suqrotning hamda buyuk bobokolonlarimizdan biri bo'lgan Abu nasr Farobiyning ilmiy meroslarida ham uchratishimiz mumkin. Keyinchalik bu usullar zamonaviy olimlar tomonidan o'rganilgan, takomillashtirilgan va ta'lim jarayoniga tadbiiq qilib kelinmoqda.

Muammoli o'qitish texnologiyasi nima?

**Muammoli o'qitish texnologiyasi** – bu shunday ta'lim texnologiyasiki, bunda o'qituvchi mashg'ulot davomida muammoli vaziyatni yaratadi, talabalar esa bu muammoning yechimini topadi. Ushbu usul talabalarning aynan ma'lum bilimlarga ijodiy jihatdan erishishga va ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.


**Inklyuziv ta'limning maqsadi** – o'rganuvchi tomonidan nafaqat yangi bilimga ega bo'lish, balki o'sha bilimga ega bo'lishi uchun o'zining faol mustaqil izlanishi davomida uning barcha bosqich (yo'l)laridan o'tishi bilan ajralib turadi. Bunday yondashuv mustaqil ravishda bilimga ega bo'lish, o'z fikrini ilgari surish va nostandart muammolarni yechishga yordam beradi.

Muammoli vaziyat asosidagi vazifalar talabalar bilan ko'proq seminar mashg'ulotlarida qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'z navbatida keyingi guruh mashqi va amaliy mashg'ulotlar samaradorligiga ham zamin yaratadi.



Talabalarga berilgan seminar savollari bo'yicha o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyat yaratiladi va mashg'ulot davomida ularga taqdim qilinadi. Sog'lom raqobat muhitini yaratish va fikrlar xilma-xilligiga erishish maqsadida, muammoli vaziyat har bir talabalariga yakka tartibda ishlashi uchun yoki kichik guruhlariga bo'lgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muammoli vaziyatni yaratish va uni yechimini topish ma'lum ketma-ketlikda amalga oshiriladi (1-rasm).



### 1-rasm. Muammoli vaziyat yechimi topish ketma-ketligi.

**Muammoli vaziyat.** O'qituvchi tomonidan muammoli vazifa (vaziyat) yoki savol beriladi. Ushbu vazifa yoki vaziyat turlicha ko'rinishda, ya'ni matn ko'rinishda qog'ozda, kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan shaklda (elektron ko'rinishda) yoki videorolik ko'rinishida bo'lishi mumkin. Istalgan shakldagi holatda ham yechimi topilishi lozim bo'lgan muammoli vaziyat yaratilgan bo'lishi kerak. Ushbu vaziyatlar tushunarli, o'tilgan o'quv dasturi mazmuniga mos va real materiallar asosida tayyorlangan bo'lishi kerak.

**Yechim yo'llarini izlash.** Talabalar ushbu vaziyatni har tomonlama o'rganadi. Uning yechimi bo'yicha rahbariy hujjatlar talabalariga mosligini, o'z tajribalarida shunga o'xshash muammoli vaziyat yechimi qanday bo'lganligini, qolaversa zamonaviy tajribalarga tayanib har tomonlama tahlil qiladilar. Kichik guruhlar tarkibida ishlashlari davomida o'z fikrlarini bir-birlari bilan muhokama qiladilar.

**Amaliy yechimni topish.** Talabalar yoki guruh turli xil manbaalarga asoslangan holda o'z yechim variantlarini ishlab chiqadilar. So'ngra yakka tartibda yoki guruhdan bir o'rganuvchi muammoli vaziyat bo'yicha o'z yechimini taqdim qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, taqdim etilayotgan yechim varianti manbaalarga tayangan holda asoslab berilishi lozim bo'ladi.

Shu tariqa barcha javoblar eshitiladi. Javoblarni eshitish davomida talabalar boshqalarning javoblari mazmunidan o'zlariga kerakli ma'lumotlarga ham ega bo'lishi mumkin. Yakunda esa o'qituvchi tomonidan umumiy xulosa qilinadi.

Muammoli o'qitish texnologiyasi bo'yicha, ya'ni muammoli vaziyatni yaratish va uni yechimini topish bosqichlari to'g'risida turli pedagoglarning o'z yondashuvlari mavjud bo'lib, o'quv fani turi, mashg'ulot turi, muammoli vaziyatning mazmuni va murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda istalgan bir ketma-ketlik tanlanishi mumkin.



**Muammoli vaziyatni yaratish usullari.** O‘qituvchi mashg‘ulotning o‘quv maqsadi asosida muammoli vaziyatni modellashtiradi. Vaziyatni yaratishning turli usullari mavjud bo‘lib, quyida ma’lum usullar keltirib o‘tiladi.

❖ o‘qituvchi talabalar guruhi o‘rtasida qarama-qarshi fikr muhitini yaratadi va o‘zlariga muammoni yechimini topishni taqdim qiladi;

❖ talabalarga vaziyatni tahlillarini taqqoslash, xulosalarni umumlashtirish va faktlarni solishtirish taqdim etiladi;

❖ o‘qituvchi aniq savollarni beradi va muammoning yechimiga turlicha qarashlar yoki qarama-qarshi pozitsiyalarni taqdim qiladi;

❖ muammoli vazifa o‘z mazmunida noaniqliklarni ifodalaydi, ya’ni qarama-qarshi fikrlar, ayrim xatoliklar va hakoza. Qisqa vaqt ichida muammoni yechish talab etiladi;

❖ talabalar taqdim etilgan voqea, hodisa va jarayonlarga o‘xshash holatlarni topish vazifasi yuklatiladi;

❖ guruh taqdim etilgan ma’lum qarorlardan bitta ma’qulini tanlashi kerak bo‘ladi.

Muammoli vaziyatni yechishning qaysi usulini tanlashdan qat’iy nazar, uning maqsadi talabalarni larni mustaqil ravishda yangilikka intilishga o‘rgatish hisoblanadi. O‘qituvchi talabalarning izlanishga yo‘naltirilgan har bir harakatlarini doimiy ravishda rag‘batlantirib turishi lozim bo‘ladi.

### **Xulosa**

O‘quv mashg‘ulotlarini muammoli o‘qitish texnologiyasi usullarini qo‘llash orqali tashkillashtirish bir muncha murakkab ish hisoblanadi, lekin bunday mashg‘ulotlar talabalarni larning ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Talabalar o‘quv materiallarini xotiralarida yaxshi saqlab qoladi, mashg‘ulotga ishtirok etish faolligi oshadi, bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortib boradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Xasanov S. Pedagogik texnologiyalar / O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009 y.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A., “Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod”, 2008 y.
3. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. – Toshkent.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013 y. – 136 bet.
4. Ashurova Z.M. Inklyuziv ta’lim texnologiyalari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari. cyberleninka.ru/2 (13), 2018 y. 93-97 betlar.
5. Ismoilova Z.Q., Raupova Sh.A. Inklyuziv ta’lim texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni. elibrary. ru./ 2 (8), 2019 y. 36-40 betlar.
6. Axmadaliev S.Y. Kasbiy yo‘naltirilgan muammoli o‘qitish texnologiyasi. cyberleninka.ru/1 (6), 2020 y. 18-27 betlar.



7. Shaimov O.Q. Zamonaviy harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik fazilatini yuksaltirishda axloqiy qadriyatlarning oʻrni. *Worldwide cross-disciplinary research international scientific practical journal*. 2024 yil. 120-126 betlar.